ISSN 2091-5446

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК — SCIENTIFIC JOURNAL

2020-yil, 1-son (119)

TABIIY FANLAR SERIYASI

Kimyo, Biologiya, Geografiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR — **R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: — **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.n., dotsent**
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M. X. ASHUROV	- O‘zFA akademigi
T. M. MO‘MINOV	- O‘zFA akademigi
Sh. A. ALIMOV	- O‘zFA akademigi
S. N. LAKAYEV	- O‘zFA akademigi
T. RASHIDOV	- O‘zFA akademigi
N. N. NIZAMOV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)
A. S. SOLEEV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)
I. A. IKROMOV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)
B. X. XO‘JAYAROV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)
N. B. FERAPONTOV	- k.f.d., professor (Moskva davlat universiteti, Rossiya)
Sh. M. TUGIZOV	- professor, (Kaliforniya universiteti, AQSh)
A. G. YaGOLA	- f.-m.f.d., professor (Moskva davlat universiteti, Rossiya)
I. I. JUMANOV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)
E. A. ABDURAXMONOV	- k.f.d., professor (SamDU)
N. K. MUXAMADIYEV	- k.f.d., professor (SamDU)
ANDREA PITACCO	- Padova universiteti professori, Italiya
VEENA AGRAWAL	- Dehli universiteti professori, Hindiston
MASLINA DARUS	- Malayziya milliy universiteti professori, Malayziya
ALBERTO DEL BIMBO	- Florensiya universiteti professori, Italiya
K. G. TOKHADZE	- Sankt Peterburg davlat universiteti professori, Rossiya
L. A. BULAVIN	- Kiev milliy universiteti professori, Ukraina
MIHAY BULAI	- Aleksandr Ioan Kuza universiteti professori, Ruminiya
J. X. XO‘JAYEV	- b.f.d., professor (SamDU)
Z. I. IZZATULLAYEV	- b.f.d., professor (SamDU)
L. A. ALIBEKOV	- g.f.d., professor (SamDU)
A. A. ABULQOSIMOV	- g.f.d., professor (SamDU)
X. SHODIEV	- Vilfred Laurier universiteti professori (Kanada)
L. SOBIROV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)
X. X. XUDOYNAZAROV	- t.f.d., professor (SamDU)
GUN-SIK PARK	- Seul universiteti professori (Koreya)

Obuna indeksi – yakka tartibidagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

KIMYO / ХИМИЯ / CHEMISTRY	
Рузиев И.Х. Влияние условий хроматографирования и структуры сорбатов на удерживание некоторых азотсодержащих гетероциклических соединений ……	4
Урунбаева З.Э., Саидов А.Ш., Алимова М., Виноградова В.И. Синтез амидов итоконовой кислоты на основ гомовератриламина……..	8
Рахматов Х.Б., Сафарова Г.Э., Юлдашев Н.Т., Фармонов Х.З. Электрохимическое поведение диэтиламино-4-метил-гексин-ола-4 на платиновом дисковом микроаноде в неводных средах ……..	11
Тробов Х.Т., Турсунова Г.Х. Токмачев М.Г., Ферапонтов Н.Б. Изучение текстурных, физико-химических и сорбционных характеристик активированного угля, полученного из скорлупы грецкого ореха……..	18
Galyametdinov Yu.G., Shamilov R.R., Ishankulov A.F., Xalilov Q.F., Muxamadiev N.Q. CdSe kvant nuqtalarining sintezi va optik-o'lcham xossalarini o'rganish …….....	22
Зияев Д.А., Мадатов У.А. Использование электрохимических сенсоров при определении индия методом инверсионной вольтамперометрии.....	26
Захидов К.А., Меликулов О.Ж., Гайбуллаев Ш.Ш., Орипов Э.О. Влияние различных факторов на направление реакции алкилирования 2-ацетиламино-6-метил (фенил) пиримидин-4-онов.....	30
Яхшиева З. З., Калонов Р. М. Амперометрическое титрование Bi(iii) раствором диэтилдитиокарбомата в смешанной среде…….....	36
Mirzaqulov U.J., Nadirashvili S.V., Ochilov Sh.E., Mahkamov M.A. Mahalliy gilmoyalar asosida olingan kompozitsion gellarning suvli eritmalarda bo'kishini tadqiq qilish……..	41
Бакахонов А.А., Яхшиева З.З., Султонов М.М. Оптимизация условий амперометрического определения вольфрама……...	44
Buronov A.O., Nasimov A.M., Haydarov G'.Sh. Mulikboyev J.K., Toshpulatov X.Sh. Zol-gel texnologiyasi yordamida tetraetoksisilan asosida optik sensorlar uchun materiallar tayyorlash……..	47
Fayzullayev N.I., Mamadoliyev I.I. Mahalliy xomashyolardan olingan yuqori kremniyli seolitli sistemalarining xarakteristikalari….	52
M.A.Tursunov, B.B.Umarov, Q.G'.Avezov, M.M.Amonov, S.Y.Mardonov Formilpinakolin va benzoilsirka al'degid hosilalari asosidagi Ni(ii) va Zn(ii) kompleks birikmalarining tuzilishini o'rganish…….	56
Egamqulova L, Hayitova M, Eshmurodova G, Tillayev S. DAS/TEOS asosidagi gibrid materiallarni fizik-kimyoviy usullar yordamida tadqiq etish…….	62

Pirimova M.A., Kadirova Sh.A., Ziyayev A.A., Buvraev E.R. Co(II) va V(V) ning 5-(fenil)-1,3,4-oksadiazol-2-tion asosidagi aralash metalli kompleks birikmasini antioksidantlik faolligini o‘rganish……	65
Муратов И.М., Аскаров К.А., Халиков К.М. Электросинтез в химии порфиринов……	68
Ubaydullayev A.U., Fayzullayev N.T., Yusupov A.B., Saidov A.Sh., Xushmatov Sh.S., Vinogradova V.I. 1,3-bis-(6,7-dimetoksi-1,2,3,4-tetragidroizoxinolin-1-il)-propan sintezi va qiyosiy inotrop ta’siri.	71
Tillayev X.R., Turayev X.X., Umbarov I.A. Surxondaryo suvi tarkibidan Ia va IIa guruh ionlarini aniqlash……...	76
Рахмонова Д.С., Г апурова Л.Н., Кадирова З.Ч., Кадирова Ш.А., Абдурахмонов Ғ. Исследование биологических свойств комплексных соединений производных аминобензимидазола……..	79
Nasimov A.M., Tashpulatov X.Sh., Mirzayev Sh.E., Haydarov G‘.Sh., Begimkulova Sh.A. Sedimentatsiya usulida zno nanozarrachalarini sintez qilish……	82
BIOLOGIYA / БИОЛОГИЯ / BIOLOGY	
Adilova O. G‘o‘bdin tog‘idagi monitoring maydonchada ekilgan daraxt va butalarning rivojlanish tahlili ….	86
Ruziyev Yu.S. Odam qon zardobi tarkibidagi transferrinning miqdoriy tahlili ……...	90
GEOGRAFIYA / ГЕОГРАФИЯ /GEOGRAPHY	
Журакулов Х., Журакулова Д. Ландшафты зарафшанских гор и прилегающих равнин и закономерности их развития…….	94
Abdulqosimov A.A., Ulug‘murodov E.B. O‘rta Osiyo cho‘l landshaftlari va ularning barqaror rivojlanishi.....	99
Кадиров М. А. Региональные типы и районирование расселения Самаркандской области…….	102
Axmadaliyev Yu.I., Amanov A.K. Namangan viloyati tog‘oldi yer resurslaridan foydalanishning geoekologik xususiyatlari…….	107

UDK: 551,2 (575,1)

O‘RTA OSIYO CHO‘L LANDSHAFTLARI VA ULARNING BARQAROR RIVOJLANISHI

A.A.Abdulqosimov, E.B.Ulug‘murodov
Samarqand davlat universiteti
E-mail: elsamo8999@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada O‘rta Osiyo cho‘l landshaftlarining geografik tarqalishi, Turon pasttekisligida o‘zining tabiiy chegarasiga ega bo‘lgan geografik o‘rni, Orol dengizining akvatoriyasini yillar davomida qisqarib borishi, ikki qismga bo‘linish jarayoni e’tirof etilgan.

Kalit so‘zlar: cho‘l landshaftlari, barqaror rivojlanish, Orol dengizi suvining qurib borishi, taqir yerlarning paydo bo‘lishi.

Пустынные ландшафты средней азии и их устойчивое развитие

Аннотация. В статье излагается географическое распространение пустинных ландшафтов в Средней Азии, географическое расположение Туранской низменности, которая имеет свою природную границу.

Ключевые слова: устойчивое развитие пустынных ландшафтов, высыхание воды Аральского моря, устойчивое развитие такырных земель.

Desert landscapes of central asia and theirsustainable development.

Abstract. The article outlines the geographical distribution of desert landscapes in Central Asia, the geographical location of the Turan lowland, which has its own natural border.

Keywords: sustainable desert landscapes, drying of the Aral Sea water sustainable development of takir lands.

Krish

Yevrosiyo materigini tabiiy geografik rayonlantirishda Turon pasttekisligi alohida mustaqil o‘zining chegarasiga ega bo‘lgan tabiiy geografik o‘lkani tashkil etadi. Uning tarkibida mavjud bo‘lgan Orol dengizining akvatoriyasi 1960 yilga qadar 66,1 ming kv.km ni, orollari bilan birga 68321 kv. km ni, uzunligi 414 km ni, eng keng joyi 292 km ni tashkil etgan. Suv sathi 53,4 m, suvning o‘rtacha sho‘rligi 11-12 ‰ , suv hajmi 1062 km^3 bo‘lgan. 1974 yilga kelib suv sathi 51 m gacha pasaygan. 2000 yilda suv sathi 20 m gacha pasayib, maydoni 23,3 ming kv. km ga qisqargan. Buning oqibatida Orol dengizining suv hajmi 162 km^3 gacha kamayib, suvining sho‘rligi 77 % ga ko‘tarilgan.

Asosiy qism

Keyingi yillarda Orol dengizining suv hajmi va maydoni dinamik ravishda qisqarib borib, arid iqlim sharoitida ikki qismga bo‘linib ketadi. Natijada Turon pasttekisligi cho‘l landshaftlari doirasida ikkita Orol ko‘li vujudga keladi. Bular Katta Orol ko‘li va Kichik Orol ko‘li deb ataladi. Orol dengizining qurib borishi natijasida uning o‘rnini Orolbo‘yi sho‘rxok va qumoq cho‘l landshaftlari egallay boshladi. 1960-yilgacha Orol dengizi akvatoriyasi egallab yotgan suvli landshaft komplekslarining maydoni asta-sekin qisqarib, ularning o‘rnida sho‘rxok, qumoq, taqir yerlar, qumli barxanlar va boshqa rang-barang landshaft komplekslari barqaror rivojlanib boradi. Bunday vaziyatning barqaror dinamik rivojlanib borishiga qurg‘oqchil arid iqlim sharoiti bilan bir qatorda antropogen omillarning ham ijobiy ta’siri nihoyat darajada katta bo‘lgan.

O‘rta Osiyo tabiiy geografik o‘lkasining eng yirik daryolari bo‘lgan Amudaryo bilan Sirdaryoning jo‘shqin suvlari agrolandshaftlarni, shahar va qishloqlarni, Akay Sitilarni, baliq o‘rchitadigan minglab havzalarni, sholikor massivlarni suv bilan ta’minlashda keng foydalaniladi. Hayotga tatbiq etilayotgan jarayonlar oqibatida Orol dengizini suv bilan ta’minlashga imkon bo‘lmay qoldi. Bunday holat Orol dengizining suv balansiga katta salbiy darajadagi ta’sir ko‘rsata boshladi. Mazkur regionning arid iqlimli sharoitida atmosferadan tushadigan yog‘in miqdori 100 mm atrofida bo‘lib, sobiq Orol dengizini suv bilan ta’minlashga imkoni bo‘lmay qoldi.

Turon pasttekisligi cho‘l landshaftlarining dinamik o‘zgarishi shundan iboratki, 1960-yillarga qadar uning maydonini 66,1 ming kvadrat kilometri Orol dengizining suv landshaftlari bilan band bo‘lgan. 2000-yilga kelib Orolning suv sathi 20 m gacha pasayib, maydoni 23,3 ming kvadrat kilometrga qisqargan. Natijada uning maydoni dinamik o‘zgarish jarayonidan keyin 42,8 ming kvadrat kilometrga teng bo‘lgan. Keyinchalik 23,3 ming kvadrat kilometrni egallab yotgan suvlik landshaftlar o‘rnini rang-barang cho‘l landshaftlari - qumli massivlar, sho‘rxok yerlar, pastqam botiq joylarni orollar shaklidagi to‘qay landshaftlar va qisman taqirlar egallab olgan.

Orol dengizi suvining qurib qolishi oqibatida mazkur regionning dastlabki tabiiy geografik sharoiti dinamik ravishda o‘zgarib borib, arid kontinental iqlim sharoitiga moslashgan cho‘l landshaft komplekslarini rivojlantirib, mahalliy bioekologik va geoekologik vaziyatlarni shakllantiradi. 1961 yildan 1992-yilgacha, ya’ni 31 yil davomida Orol dengizining 759 km^3 suvi parlanib ketishi oqibatida uning qirg‘oqlari 50-100 km masofagacha chekinib, suvdan ozod bo‘lgan yerlarda qumoq, sho‘rxok va qisman taqir landshaft komplekslari barqaror rivojlanish faoliyatini davom ettirdi.

O‘rta Osiyo cho‘l landshaftlarining barqaror rivojlanishiga Orol dengizi suvining qurib qolishi va uning o‘rnida cho‘l landshaftlarining tarkib topishini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Orol dengizining akvatoriyasi uzoq yillar davomida 66,2 ming kvadrat kilometrni tashkil etib kelgan bo‘lsa, so‘nggi paytlarda tabiiy va antropogen omillar ta’sirida suv balansida salbiy o‘zgarishlar sodir bo‘la boshlaydi. Sirdaryoning suvi Chordara suv omboriga va Aydarko‘l ko‘liga quyilishi oqibatida Orol dengizini suv bilan

ta’minlab ololmaydi. Shuning uchun Orol dengizidan parlanayotgan suv miqdori unga quyilayotgan suv miqdoridan bir necha marotaba kam bo‘ladi. Bunday davom etayotgan jarayonlar Orol dengizining qurib qolishiga asosiy sabablardan biri bo‘lgan. Mazkur jarayonlarning faolligi cho‘l landshaftlarining barqaror rivojlanishiga bioekologik va geoekologik muhitlar yaratib bergan.

Arid iqlim sharoitida vujudga kelgan dinamik ravishda barqaror rivojlanayotgan cho‘l landshaftlari materiklarning ichki qismlarida, okean va dengiz sohillarida, yirik tog‘oralig‘i botiqlarida, orografik to‘siqlarda, baland tog‘ va platolarda keng tarqalgan. Cho‘l landshaftlarining asosiy qismi subtropik, tropik va mo‘‘tadil mintaqalarga to‘g‘ri keladi. Cho‘l landshaftlari muayyan zonal, regional va paradinamik xususiyatlari bilan ajralib turuvchi. O‘zining alohida shakllangan ekologik sharoiti bilan yashovchi qonuniyatlariga, rivojlanish va degradatsiyalanish jarayonlarida o‘ziga xos xususiyatlariga, dinamik o‘zgarish shakllariga ega bo‘lgan tabiiy geografik hosiladir.

Cho‘l landshaftlarining vujudga kelishi, shakllanishi va barqaror rivojlanishida, ularning makon va zamonda geografik tarqalishida bir necha omillar yetakchi rol o‘ynaydi. Bular landshaft sferasining zonalligi, issiqlik va namlikning notekis taqsimlanishi, orografik to‘siqlar, subtropik kengliklarda yil davomida atmosfera bosimining hukmronligi, sovuq dengiz oqimlarining materik sohillariga ta’siri va boshqalardir.

Shuni e’tirof etish joizki, Yevrosiyo va boshqa materiklarning ichki tekislik qismlarida vujudga kelgan cho‘l landshaftlarining aksariyati geografik zonallik qonuniyatining mahsulidir. Tog‘ sistemalari va tog‘oralig‘i botiqlaridagi cho‘l landshaftlari (Saydam, Issiqko‘l, Farg‘ona, Surxondaryo botiqlaridagi cho‘llar, Tibet tog‘ligi va Pomir tog‘idagi cho‘llar) orografik to‘siqlar tufayli vujudga kelgan cho‘l landshaftlaridir.

Materiklarda landshaft zonalarining dengiz va kontinental spektrlari mavjud bo‘lganidek, cho‘l landshaftlarining ham o‘ziga xos dengiz va kontinental spektrlari mavjud. Materiklarining tekislik qismlaridagi mo‘‘tadil cho‘l, subtropik cho‘l va tropik cho‘l landshaftlari kontinental spektrni tashkil etsa, materik sohillarida sovuq dengiz oqimlari ta’sirida vujudga kelgan cho‘l mintaqalari dengiz spektrini tashkil etadi. Sovuq dengiz oqimlari ta’sirida hosil bo‘lgan cho‘llarga Atakama va Namib cho‘llari kiradi. Atakama cho‘li Janubiy Amerikaning g‘arbida Tinch okean sohili bo‘ylab 22^0-27^0 j.k. oralig‘ida qariyb 1000 km masofaga cho‘zilgan. U qirg‘oq cho‘llari tipiga kirib, subtropik antitsiklon ta’sirida vujudga kelgan. Iqlimi tropik passatli, sovuq Peru oqimi tufayli nisbatan salqinroq, cho‘lning sohil qismida yanvarning o‘rtacha harorati $+19^0$, $+20^0$ S, iyulniki $+13^0$, $+14^0$ S. O‘rtacha yillik yog‘in miqdori 50 mm dan 80 mm gacha, biroq yog‘in har yili ham kuzatilavermaydi. Lekin havoning nisbiy namligi qish va bahor oylarida 78-82 % gacha, bulutlilik 85% gacha yetadi. Cho‘l hududi uchun tumanlar va mayda namlik tomchilari xarakterli. Atakamaning katta qismi harakatdagi qumli cho‘l va sho‘rxok cho‘l landshaftlari bilan band, ammo o‘simliklar nihoyatda kam uchraydi. Shuning uchun Atakama cho‘li dunyodagi eng quruq cho‘llardan biri hisoblanadi [3].

Shuni ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiqki, olimlar o‘rtasida hozirga qadar “cho‘l” atamasi bilan “arid” atamasini tushunishda mutanosiblik yo‘q. Ma’lumki, cho‘l landshaftlarining aridlik (qurg‘ochilik) darajasi hamma yerda bir xil emas. Shuni e’tiborga olib A.G.Boboev va boshqalar (1986) arid yerlarni aridlik (qurg‘oqchilik) darajasiga qarab ekstraarid (o‘ta qurg‘ochil, doimiy qurg‘oqchilik ehtimoli 75-100%), arid (qurg‘oqchil, 50-75%) va chalaarid (chala qurg‘oqchil, 20-40%) yerlarga bo‘lishadi. Cho‘l atamasining mazmuni esa cho‘l landshaftlarining asosiy mohiyatini, ularning zonal va tipologik xususiyatlarini belgilaydi. Masalan, O‘rta Osiyoning cho‘l landshaft zonasi ichki zonal farqlariga ko‘ra shimoliy cho‘l, o‘rta yoki tipik cho‘l va janubiy cho‘lga bo‘linadi. Cho‘l landshaftlari tipologik xususiyatlariga ko‘ra qumli cho‘l, toshloq cho‘l, lyossli cho‘l, gilli cho‘l, sho‘rxok cho‘l, taqirli cho‘l kabilarga bo‘linadi. SHunday ekan, O‘rta Osiyoning eng katta cho‘llaridan hisoblangan, Turon pasttekisligining asosiy qismini egallab yotgan Qizilqum va Qoraqum cho‘llari ham arid landshaftlar guruhiga kiradi [1].

Qizilqum cho‘li O‘rta Osiyoning arid iqlimli ichki berk havzasida, Amudaryo bilan Sirdaryoning oralig‘ida joylashgan. Uning eng keng joyi shimoldan janubga qarab Jusali-Farob meridianida 650 km masofaga, g‘arbdan sharqqa qarab 600 km masofaga cho‘zilgan. Maydoni 300 ming kv. km ni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich Markaziy Osiyodagi Gobi cho‘lidan 3 marta, Afrikaning shimoliy qismida joylashgan Sahroi Kabir cho‘lidan 20 marta kichikroqdir.

Qizilqumning hozirgi arid landshaftlarining vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishida hududning geologik tuzilishi, litologik tarkibi, tektonik strukturasi va relef shakllari asosiy indikatorlar vazifasini bajaradi. Turon plitasi va cho‘l landshaftlari poydevorini tarkib topishida paleozoy, mezozoy va kaynozoyning kristall va cho‘kindi jinslari faol ishtirok etadi. Qizilqumning katta qismida kaynozoy yotqiziqlari va ularning litologik tuzilishi asosida vujudga kelgan arid landshaft komplekslari hukmronlik

qiladi. Paleogen davrida Qizilqumning aksariyat maydoni suv landshaftlari bilan band bo‘lgan. Neogenda suv havzasi yangi tektonik harakatlar natijasida kontinental rejim bilan almashinadi. Neogenning kontinental sharoitida vujudga kelgan cho‘kindi jinslari orasida qumoq-alevrolitlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Shunday qilib paleogen va neogen davrlarining barcha turdagi yotqiziqlari Qizilqumning rang-barang arid geosistemalarini shakllanishida landshaft hosil qiluvchi litologik indikator rolini o‘ynagan.

Qizilqum cho‘lining hozirgi landshaftlarini shakllanishiga to‘rtlamchi (antropogen) davr yotqiziqlarining ta’siri nihoyatda katta. Bu yotqiziqlar keng tarqalgan bo‘lib, ular oldingi davr yotqiziqlarini yupqa qatlam hosil qilib qoplab olgan. Qizilqumning yer yuzasini tuzilishi, kontinental iqlim sharoiti bilan bog‘liq ravishda uzoq davom etgan tabiiy geografik jarayonlar natijasida yotqiziqlarning delyuvial, elyuvial, prolyuvial, allyuvial va genetik tiplari shakllangan. Ular ham arid landshaftlarning paydo bo‘lishida tabiiy omil sifatida ishtirok etadi. Cho‘l landshaftlarining shaklllanib, dinamik rivojlanib borishida hozirga qadar ham davom etib kelayotgan yangi tektonik harakatlar alohida o‘rin egallaydi. Mazkur regionning faqat hozirgi relef shakllarigina emas, balki eol qumli tekislik, past tog‘, berk botiq sho‘rxok, prolyuvial tekislik, allyuvial va boshqa turdagi arid landshaftlar ham yangi tektonik harakatlar ta’sirida rivojlanib, o‘zining hozirgi qiyofasiga va strukturasiga ega bo‘lgan.

Xulosa

Shunday qilib, Qizilqum cho‘lining allyuvial qum qatlamlari arid iqlim sharoitida tez-tez takrorlanib turadigan shamollar yordamida qayta ishlanib, dastlab gryadali, gryadali-do‘ng va barxan eol qum relef shakllari paydo bo‘lgan, keyinchalik arid iqlim va ekologik sharoitga moslashgan biokomponentlar vujudga kelib eol qumli cho‘l landshaftlari shakllangan. Paleozoy tog‘ etaklaridagi prolyuvial, allyuvial-prolyuvial yotqiziqlardan tashkil topgan qiya tekisliklarda tog‘oldi prolyuvial tekislik cho‘l landshaftlari rivoj topdi. Markaziy Qizilqumda keng tarqalgan past tog‘lardan litogen arid landshaftlarni shakllanishi bilan birga balandligi 800-900 m dan yuqori ko‘tarilgan tog‘ tepalari arid landshaftlarning vertikal zonal differensiatsiyalanishi ham sodir bo‘ladi. Sirdaryoning qadimgi tarmoqlari bo‘lgan Quvondaryo va Janadaryolarning quruq o‘zanlari atrofidagi gilli allyuvial tekisliklarda gilli cho‘l landshaftlari yaxshi rivojlangan. Qizilqumda keng tarqalgan Mingbuloq, Oyoqog‘itma, Qoraxotin, Mullali va boshqa berk botiqlarning litologik poydevori tuzga boy bo‘lgan yotqiziqlardan tashkil topganligi sababli bu yerda sho‘rxok (xemogen) cho‘l landshaftlari hukmronlik qiladi.

O‘rta Osiyo tabiiy geografik o‘lkasida cho‘l landshaftlarining barqaror rivojlanishiga Orol dengizi suvining qurib qolishi va uning o‘rnida cho‘l landshaftlarining tarkib topishini misol qilib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Abdulqosimov A.A., Abbosov S.B. Cho‘llarning vujudga kelishi, shakllanishi va geografik tarqalishi. // O‘zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 28-jild. – Toshkent, 2007. –B. 6-10.
2. Бабаев А.Г. и др. Пустыни. Природа мира. – М.: Мысль, 1986. -318 с.
3. Лукашова Е.Н. Южная Америка. – М.: Учпедгиз, 1958. -467 с.
4. Олейников И.Н. Краткая географическая энциклопедия. Т.3. –М., 1962.
5. Петров М.П. Пустыни земного шара. –Л.: Наука, 1973. -435 с.

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog‘ozda chop etilgan va elektron shaklda taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar**: UDK, ishning nomi (o‘zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro‘yxati (to‘liq familiya, ismi, otasining ismi –o‘zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o‘zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so‘zlar (5-7, o‘zbek, rus va ingliz tillarida) bo‘lishi lozim.

MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo‘ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag‘ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo‘yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo‘lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo‘lib, mumkin qadar qisqa so‘zlar bilan ifodalangan bo‘lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; “Ilmiy axborotnoma” jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro‘yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko‘rinishida terilgan bo‘lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo‘lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o‘ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o‘lchami - 11 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo‘g‘in ko‘chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro‘yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro‘yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- “Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi”dan ko‘chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas’ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo‘llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E- mail:axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК **SCIENTIFIC REPORTS**

Mas’ul kotib	**X. Sh. Tashpulatov**
Musahhih	**O. Ro‘ziboyev**
Texnik muharrir	**A. I. Inatov**

Muharrirlar:

I.Sulaymonov	- f.f.d., dotsent
E.Arziqulov	- f.-m.f.n., dotsent
O.Yusupova	- fil.f.n., dotsent
A.R.Safarov	- PhD., dotsent

Mas’ul muharrirlar:

D. M. Aronbayev	- k.f.n., dotsent
A. Sh. Yarmuxamedov	- f.-m.f.n.

Muassis: Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87
e-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga 20.03.2020 yilda ruxsat etildi. Qog‘oz o’lchami A-4. Nashriyot hisob tabog‘i 10,00.
Buyurtma raqami 20/03.

_____

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
SamDU bosmaxonasida chop etildi.